

**MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA TALABALAR IJODIY FAOLIYATINI
TASHKIL ETISHNING SAMARALI USULLARI
(Amaliy bezak san'ati misolida)**

Ibadullayeva Nigora Egamberganovna. Abu Rayhon Beruniy nomli Urganch davlat universiteti. San'at kafedrası katta o'qituvchisi;
ibadullayevanigora@gmail.com

Jumaniyazova Feruza Xursandbekovna. Abu Rayhon Beruniy nomli Urganch davlat universiteti. Amaliy san'at (badiiy kulolchilik) yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim jarayonida talabalar ijodiy faoliyatini tashkil etishning samarali metodlari amaliy bezak san'ati misolida tahlil qilinadi. Talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil ishlash kompetensiyalarini shakllantirish va amaliy ijodiy vazifalarni samarali tashkil etishning metodik asoslari yoritiladi. Tadqiqot natijasida mustaqil ta'limni loyihalash, ijodiy topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va baholash mezonlarini takomillashtirish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, ijodiy faoliyat, amaliy bezak san'ati, pedagogik metodika, talaba kompetensiyasi, dizayn tafakkuri.

Аннотация. В статье рассматриваются эффективные методы организации творческой деятельности студентов в процессе самостоятельного обучения на примере декоративно-прикладного искусства. Освещаются педагогические условия развития художественного мышления, формирования самостоятельных компетенций и внедрения творческих заданий. Обоснована необходимость совершенствования методики проектирования самостоятельной работы и системы оценки результатов.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, творческая деятельность, декоративно-прикладное искусство, педагогическая методика, компетенции студентов, художественное мышление.

Annotation. The article analyzes effective methods for organizing students' creative activities in independent learning based on decorative and applied arts. It highlights pedagogical conditions for developing artistic thinking, independent competencies, and implementing creative assignments. The necessity of improving

methodological approaches to designing independent learning and assessment systems is substantiated.

Keywords: independent learning, creative activity, decorative and applied arts, pedagogical methods, student competencies, artistic thinking.

Zamonaviy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim talabani kasbiy va ijodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, amaliy bezak san'ati yo'nalishida mustaqil ijodiy faoliyatni tashkil etish talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish hamda kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida passiv bilim olishdan faol ijodiy faoliyatga o'tish zarurati ortib bormoqda. Bu esa mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etish, metodik jihatdan asoslash va samarali usullarni ishlab chiqishni talab etadi.

Ijodiy faoliyatda badiiy-ijodiy va mustaqil faoliyat tushunchalari umumiy xususiyatga ega talabalarning qo'yilgan o'quv vazifalarini hal qilishdagi harakatlarning tashabbuskorligi va maqsadliligi va ularning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Shuning uchun mustaqil badiiy-ijodiy faoliyat bu o'quv jarayonining o'zgaruvchan sharoitlarida o'z oldiga qo'yilgan muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini va amalga oshirishning ijodiy shaklini tanlash orqali uning atrofidagi dunyoni tushunish va o'zgartirishga qaratilgan faol, maqsadli faoliyati hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etishda quyidagi muammolar kuzatiladi: ijodiy topshiriqlarning tizimli emasligi; baholash mezonlarining aniq ishlab chiqilmaganligi; amaliy san'atni o'qitishda metodik yondashuvlarning yetarli emasligi; mustaqil ishlash motivatsiyasining pastligi. Mazkur muammolarni hal etish uchun pedagogik texnologiyalar asosida mustaqil ta'limni tashkil etish zarur.

Mustaqil ta'lim – bu talabani o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan faoliyati bo'lib, unda: mustaqil fikrlash; muammoni hal etish; ijodiy yondashuv; o'zini baholash kompetensiyalari shakllanadi. Amaliy bezak san'atida mustaqil ta'lim vizual idrok, kompozitsion fikrlash va material bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Amaliy bezak san'ati asosida ijodiy faoliyatni tashkil etish uchun bir qancha usullardan foydalanishimiz mumkin. Shulanardan “Loyiha asosida o'qitish” va “Muammoli ta'lim” texnologiyalari o'quv va ijodiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun katta yordam beradi.

“Loyiha asosida o‘qitish” texnologiyasida talabalarga milliy naqsh, keramika, zardo‘zlik, to‘qimachilik yoki dizayn asosida loyiha tayyorlash topshiriladi. Bu usul talabalarda mustaqil izlanish, ijodiy qarorlar qabul qilish va natijaga yo‘naltirilgan faoliyatni rivojlantiradi. Muammoli ta‘lim texnologiyasida talabalarga badiiy muammo beriladi: masalan, milliy naqshlarni zamonaviy dizaynda qo‘llash. Ular o‘z yechimlarini ishlab chiqadilar.

Mustaqil ta‘limni tashkil qilishda portfolio metodi juda samarali metodlardan biri hisoblanadi. Bu metodda talabaning barcha ijodiy ishlari tizimli ravishda yig‘iladi. Bu esa o‘z navbatida o‘qitishni kuzatish, refleksiya va talabaning o‘zini baholash imkonini beradi. Shuningdek, ustoz-shogird modeli amaliy bezak san‘atida an‘anaviy o‘qitish usuli bo‘lib, tajribali ustalar bilan ishlash orqali talabaning amaliy mahorati oshadi.

Mustaqil ta‘limni samarali tashkil qilishda amaliy san‘atdan ijodiy topshiriqlar tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Mustaqil ta‘limda milliy bezak asosida kompozitsiya yaratish, keramika buyumi dizaynini ishlab chiqish, mato naqshlari eskizini tayyorlash, zardo‘zlik elementlari asosida dekorativ panel yaratish va zamonaviy interyer uchun amaliy bezak loyihasi kabi topshiriqlar samarali hisoblanadi. Demak, amaliy bezak san‘ati asosida tashkil etilgan mustaqil ta‘lim mashg‘ulotlari talabalarining ijodiy fikrlashini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarni mustahkamlashda, estetik dunyoqarashni kengaytirishda va ijodda innovatsion yondashuvlarni shakllantirishda juda zarur hisoblanadi. Natijada, talabalar o‘z bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llashga o‘rganadilar.

Amaliy bezak san‘ati asosida mustaqil ta‘limni tashkil etish talabalarining ijodiy va kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayonda loyiha metodi, muammoli ta‘lim, portfolio, integrativ yondashuv kabi pedagogik usullar samarali natija beradi. Shuningdek, baholash mezonlarini takomillashtirish, ijodiy topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va milliy san‘at an‘analarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, talabalarining ijodiy faoliyatdagi mustaqilligini rivojlantirish ijodiy va amaliy xarakterdagi ishlarni bajarishda eng samarali hisoblanadi, chunki u talabaning bilim va tajribasini nostandart tarzda qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi. Talabalarining ijodiy mustaqilligini rivojlantirishda zarur bo‘lgan badiiy-ijodiy ishlarni bajarishning asosiy bosqichlari mavjudlik, izchillik va tizimlilikning umumiy didaktik tamoyillariga muvofiq tizimli ravishda amalga oshirildi. loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi o‘quvchilarning badiiy va ijodiy faoliyatda mustaqilligini

rivojlantirishning samarali usullaridan biridir, chunki estetik faollik aynan unda rivojlanadi, o‘quvchilarning boshqa sohalarda ijodiy o‘zini o‘zi anglashi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibadullayeva N.E. Talabalarning badiiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda rangtasvirdan mustaqil badiiy va ijodiy faoliyatni tashkil etishning ahamiyati. Integratsiyalashgan ta’lim va tadqiqotlar jurnali. Journal of integrated education and research. ISSN 2181-3558.VOLUME 2, ISSUE 6.COLLECTION B JUNE 2023. <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/issue/view/29/50>
2. Ибадуллаева,Н. 2024. Развитие художественно-творческих компетенций студентов изобразительного художественного образования. Общество и инновации. 5, 10/S (окт. 2024), 55–62. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss10/S-pp55-62>.
3. Ibadullayeva N.E, Ibadullayev S.Э, Xorazm kulolchilik va koshinpazlik san’atidagi an’anaviy texnologiyalarning o’ziga xos uslublari va estetik ta’sirchanligi. “ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal. 2022 yil.7-son. 132-135.
4. Ibadullayeva N.E. The traditions preserved in the Khorezm blue pottery schools. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research. Volume: 7 Issue: 12. December 2021. 272-275. <https://doi.org/10.36713/epra2013>.
5. Egamberganovich I. S. Хива naqqoshlik san’ati ustalarning merosi va hunarlarini yoshlarga o’rgatish orqali ularning ma’naviyatini shakllantirish //Sustainability of education, socio-economic science theory. – 2024. – Т. 2. – №. 14. – С. 84-87.
6. Ibadullayev Saburjan Egamberganovich. Badiiy ijodni shaxsning estetik madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati. The theory of recent scientific research in the field of pedagogy: a collection scientific works of the International scientific online conference (21st October, 2024)–INDIA, New Delhi: "CESS",2024.Part26.25-27b. <https://interoncof.com/index.php/india/issue/view/>
7. Ibadullayev Saburjan Egamberganovich. (2026). San’at muzeylariga tashrif orqali o‘quvchilarning ijodiy dunyoqarashini shakllantirish imkoniyatlari. Recent Scientific Discoveries and Methodological Research, 3(2), 83–87. Retrieved from <https://incop.org/index.php/re/article/view/3284>
8. Гладышев Г.М. Педагогические условия развития духовно-творческого потенциала будущего художника-педагога: Автореф. дис.канд. пед. наук, Оренбург, 2000.